

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 8 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SCP1342V3I8Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 8 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодида Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Тахририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Тахририят манзили:
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Воҳидова Комила Абдуллозизовна*
“ЭЛ БАЙРОҒИ” ГАЗЕТАСИ ҲАҚИДА 11-17
- Сулайманов Саламат Арепбаевич*
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУХТОР ВИЛОЯТИДА ҚУРУҚЛИК ВА СУВ ТРАНСПОРТИ: МУАММО
ВА ЕЧИМЛАР (1924-1932 ЙЙ) 18-24
- Раунов Холмамат*
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА УРАН КОНЛАРИНИ ЎЗЛАШТИРИШ ТАРИХИ 25-32
- Мажидов Анвар Сиражович*
ИМПЕРИЯ МУСТАМЛАКАЧИЛИК СИЁСАТИНИНГ ТУРКИСТОН ТУБ ХАЛҚЛАРИНИНГ
ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА ФУҚАРОЛИК АҲВОЛИГА ТАЪСИРИ (СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ
МИСОЛИДА) 33-40
- Begatova Nasiba Xolmurzayevna*
FERMER XO‘JALIKLARI VA KLASSTER TIZIMI UCHUN O‘RTA MA‘LUMOTLI MUTAXASSISLARNI
TAYYORLASH TIZIMIDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR (SURXONDARYO VILOYATI
MISOLIDA) 41-48
- Алланазаров Мурот Мирзаевич*
БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ НОЗИРЛАР ШЎРОСИ ВА МИЛЛИЙ РАҲБАР
ХОДИМЛАР ФАОЛИЯТИ ХУСУСИДА 49-54
- Ismoilova Feruza Ibragimovna*
URUSH YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN VA MADANIYAT SOHALARIDAGI
XIZMATLARI 55-59
- Tursunov Xurshid Nasriddinovich*
O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI
HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI 60-64

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Yuldosheva Gulnoza Abdinabiyevna*
THE ROLE OF THE DIGITAL ECONOMY IN MODELING THE FINANCIAL ACTIVITIES OF
ENTERPRISES 65-70
- Oromidinov Muzaffar Pardabayevich*
DIRECTIONS FOR IMPROVING INTERNAL AUDIT IN COMMERCIAL BANKS 71-75
- Худайназарова Дилором Хайруллаевна*
ТЎҒИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ
РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ 76-84

| | |
|---|---------|
| <i>To'lov Ulug'bek Toshmamatovich, Jo'rayev Sirojiddin Muxiddin o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI SOLIQQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLARDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR | 85-92 |
| <i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich</i> MINTAQADA XIZMAT TURLARIDAN SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI | 93-98 |
| <i>Turobov Sherzod Alisherovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UY XO'JALIKLARI TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI | 99-105 |
| <i>Шамсиев Нодир Муратович</i> МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ПРИ АНАЛИЗЕ РЕЙТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИХ КАЧЕСТВЕННОЕ ОПИСАНИЕ | 106-110 |
| <i>Zaripova Moxira Zarip qizi</i> AGRAR SOHAGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI | 111-114 |
| <i>Узайдуллаев Шерзод Шукуруллаевич</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ОМИЛЛАРИ | 115-121 |
| <i>Atabayeva Karomat Rajabovna, Rajabova Maftuna Farhod qizi</i> O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISHI VA TAHLILI | 122-127 |
| <i>Жумаева Мухлиса Абдуғани қизи</i> МАМЛАКАТДА АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ | 128-137 |
| <i>Камалов Акмал Сайдакбарович, Саматов Ғаффор Аллақулович</i> ГЕОИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ШАРОИТИДА ТРАНСПОРТ ЛОЙИҲАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШГА БЎЛГАН ЁНДАШУВЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ | 138-150 |
| <i>Мамадиёров Олимжон Умарович</i> ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ ТАЪМИНЛАШ НАЗАРИЯЛАРИ ЭВОЛЮЦИЯСИ..... | 151-158 |
| <i>Раббимов Жахонгир Эшбоевич</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ОПЕРАЦИОН РИСКЛАРНИНГ МОҲИЯТИ, УЛАРНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШ САБАБЛАРИ | 159-164 |
| <i>Кулибоев Азамат Шоназарович</i> ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ | 165-174 |

Гадоев Сўҳроб Жумакулович
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КРЕДИТИНИНГ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ
ЙЎЛЛАРИ 175-181

Бекжанов Дилмурод Йўлдашович
ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ АСОСИДА ТУРИСТИК ДЕСТИНАЦИОН
МЕНЕЖМЕНТ ЖАРАЁНИ ИШТИРОКЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БАҲОЛАШ 182-193

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Boydadayev Abdurroхмон Tolibjon o'g'li
SHARQ VA G'ARB IRRATSIONAL FALSAFASIDA PANTEISTIK QARASHLARNING QIYOSIY
TAHLILI (J.RUMIY VA F.NITSSHE FALSAFASI MISOLIDA) 194-200

Xayridinov Abbosxon Anvarovich
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MA'NAVIY MA'RIFIY INQIROZLARNING OLDINI OLISHDA
MARKAZIY OSIYO QADRIYATLARINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI 201-205

Quramboyev Alisher Maxsudovich
TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOY ADOLAT TAMOYILLARINING AMAL QILISHI 206-211

Jo'rayev Alisher Tulqinboyevich
JAMIYAT MILLIY ASOSLARINI MUSTAHKAMLASH – DAVLATNING USTUVOR
MAQSADI..... 212-217

Turabova Sevara Kattaqulovna
ILMIY VAHS FENOMENINING MANTIQUIY- GNOSEOLOGIK MAQOMINI O'RGANISHDA
KONSEPTUAL-METODOLOGIK YONDOSHUV 218-224

Пардаева Марҳабо Давлатовна
АЛИШЕР НАВОЙ АСАРЛАРИДА ИЛМГА ОИД ҚАРАШЛАРИНИНГ НАҚШБАНДИЯ
ҲОЯЛАРИ БИЛАН УЙҒУНЛИГИ 225-233

Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich
NIKON MUNOSABATLARINING TADRIJIY RIVOJLANISHI 234-240

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna
DINIY MANBALARDA GO'ZALLIK TO'G'RISIDAGI FALSAFIY QARASHLAR 241-246

Юсупова Феруза Зойировна
АХЛОҚИЙ ИДЕАЛ – ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШИНING МЕЗОНИ 247-251

Teshaboev Muhiddin Marifovich
IJTIMOIY ADOLATNI TA'MINLASHNING PRINSIPIAL MASALALARI 252-257

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Soatova Nodira Isomitdinovna

LIRO-EPIK ASARLARDA POETIK FIKRNING BADIY IFODASI258-265

Narmuratov Zayniddin Radjabovich

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA266-269

Yusupova Omina Muhammadzoir kizi

DIFFERENT CLASSIFICATION OF FAIRYTALE DISCOURSE IN WORLD AND UZBEK FOLKLORE270-276

Бозорова Хулкар Одинакуловна

РУССКИЙ ЯЗЫК КАК СОСТАВЛЯЮЩАЯ СОДЕРЖАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ277-282

Matyakubov Oybek Quralbayevich

KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA «KONSEPT» TUSHUNCHASI283-288

Фатуллаева Камола Рахматуллаевна

ТЕРМИНЛАРНИНГ БЕЛГИЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАСНИФИ289-293

Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna

O'ZBEK TILIDA KAUZATIV FE'LLARNING YASALISH USULLARI294-299

Xamzayev Otaxon Erkinovich

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KASB-HUNARGA OIDMAQOLLARNING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI300-305

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

Абдурахманова Нодирахон

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В СНГ306-310

Сафоева Садокат Мусоевна

ЭКОСИСТЕМА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ РОЛЕЙ ЗАИНТЕРЕСОВАННЫХ СТОРОН В КОНТЕКСТЕ ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА311-320

Абдуллаева Маликабону Эркин қизи

ХАЛҚ ТАЪЛИМИ СОҲАСИДА КОРРУПЦИЯНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШГА ОИД АЙРИМ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИНИНГ ҚИЁСИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ321-330

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Zoirova Lola Xamidovna

TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "INSON ORGANIZMINING RADIATSIYAGA SEZGIRLIGI" MAVZUSINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

| | |
|---|---------|
| FOYDALANISH | 331-336 |
| <i>Ibragimov A'lamjon Amrilloevich</i> KOGNITIV SIFATLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI (MAKTAB PEDAGOG XODIMLARI MISOLIDA) | 337-343 |
| <i>Madaminov Azimbek Egamberganovich, Xalillayev O'ktam Sobir o'g'li</i> YOSH GANDBOLCHI DARVOZABONLARNI O'YIN TEXNIKASIGA O'RGATISH | 344-349 |
| <i>Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi</i> ANALYSIS OF THE POSITIVE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE MOTIVATION AND KNOWLEDGE OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS | 350-355 |
| <i>Джумаева Хулкархан Мухаммаджонова</i> ВНУТРЕННИЕ УГРОЗЫ, НЕГАТИВНО ВЛИЯЮЩИЕ НА ДУХОВНОСТЬ СТУДЕНТОВ.. | 356-361 |
| <i>Islomova Madina Asqarovna</i> INTEGRATSIYALASHGAN SUN'IY INTELLEKT TOMONIDAN YARATILGAN CHATGPT BOT YORDAMIDA NEMIS TILI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH | 362-368 |
| <i>Raxmatova Mexrinov Majitovna</i> YOSHLAR MA'NAVIY SALOHİYATINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI | 369-373 |
| <i>Абдукаюмова Наргиза Райимовна</i> ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ МАДАНИЙ-ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДИДАКТИК ШАРТЛАРИ | 374-384 |
| <i>Norboyev Farxod Chorshanbiyevich</i> KREATIVLIK VA INNOVATSIYA BORASIDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR | 385-390 |
| <i>Borasheva Aybolgan</i> EXPLORING JAMES MCCROSKEY'S RESEARCH ON WILLINGNESS TO COMMUNICATE IN L1 CONTEXTS: IMPLICATIONS FOR LANGUAGE TEACHING AND LEARNING | 391-398 |
| <i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i> KOGNITIV TADQIQOTLARNING FANLARARO TUSHUNCHA SIFATIDAGI MOHIYATI VA MANTIQUIY TAHLILI | 399-409 |
| <i>Boboraximov Sanjar Malikjanovich</i> MAKTABDA O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYALASHNING ZARURATI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR | 410-414 |
| <i>Salimova Shahlo Sayfulloyevna</i> XAVFSIZ TA'LIM MUHITI MONITORINGINING AHAMIYATI | 415-421 |

| | |
|---|---------|
| <i>Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi</i> METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL REASONING IN PRIMARY SCHOOL PUPILS | 422-427 |
| <i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO'GARAHLARI ORQALI TALABALARNING JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTLARI | 428-433 |
| <i>Kattaeva Feruza Shakirovna</i> DEVELOPING STUDENTS SOCIO-CULTURAL COMPETENCE BY USING SOCIO CULTURAL DISCOURSE ANALYSIS METHOD | 434-441 |
| <i>G'ofurov Azizbek Umarjonovich</i> BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH | 442-447 |
| <i>Abduraximova Umida Shuxratovna</i> BO'LAJAK TARJIMONLARNING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI | 448-454 |
| <i>Obidova Gulmira Kuzibaevna</i> INGLIZ TILINI O'RGANISH JARAYONIDA TEXNIKA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA EKOLOGIK MADANIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR VA INTERAKTIV METODLAR | 455-460 |
| <i>Axmadaliyeva Xosiyatposhsho Abduxayotovna</i> PROFESSINAL TA'LIM YO'NALISHLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN O'QUVCHILARNING INGLIZ TILIDAN KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH | 461-469 |

07.00.00 – Тарих фанлари

Begamova Nasiba Xolmurzayevna
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)
Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion
rivojlanish instituti katta o'qituvchisi
E-mail: begamova@mail.ru

**FERMER XO'JALIKLARI VA KLAS TER TIZIMI UCHUN O'RTA MA'LUMOTLI
MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH TIZIMIDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR
(SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)**

Annotatsiya. Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan islohotlar malakali kadrlarga bo'lgan talabni yuzaga keltirdi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligini taraqqiy ettirish uchun agrar sohadagi o'рта maxsus bilim yurtlarida ta'limni zamon talablari asosida yuritish zarur edi.

Kalit so'zlar: kasb-hunar kollejlari, qishloq xo'jaligi texnikumlari, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lim to'g'risidagi Qonun.

Begamova Nasiba Holmurzaevna
Doctor of Philosophy (PhD) in History
Senior Lecturer, Termez Institute of Agrotechnologies
and Innovative Development

**ACHIEVEMENTS AND PROBLEMS IN THE SYSTEM OF TRAINING SECONDARY
EDUCATIONAL SPECIALISTS FOR FARM AND CLUSTER SYSTEMS (ON THE EXAMPLE OF
SURKHONDARYA REGION)**

Abstract. The reforms carried out in agriculture during the years of independence have created a need for qualified personnel. For the development of agriculture in Uzbekistan, it was necessary to conduct training in secondary specialized educational institutions in the agrarian sector, based on the requirements of the time.

Key words: vocational colleges, agricultural colleges, National Training Program, Education Act.

Бегамова Насиба Холмурзаевна
Доктор философии (PhD) по истории
старший преподаватель Термезского института
агротехнологий и инновационного развития

**ДОСТИЖЕНИЯ И ПРОБЛЕМЫ В СИСТЕМЕ ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ
СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ДЛЯ ФЕРМЕРСКИХ И КЛАСТЕРНЫХ СИСТЕМ (НА
ПРИМЕРЕ СУРХОНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

Аннотация. Реформы, проведенные в сельском хозяйстве за годы независимости, создали потребность в квалифицированных кадрах. Для развития сельского хозяйства в Узбекистане необходимо было вести обучение в средних специальных учебных заведениях в аграрной сфере, исходя из требований времени.

Ключевые слова: профессиональные коллежи, сельскохозяйственные техникумы, Национальной программой по подготовке кадров, Закон об образовании.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I8Y2023N05>

Kirish. O‘zbekiston janubidagi viloyatlarda qishloq xo‘jaligining inqiroziga ko‘p jihatdan kadrlar yetishmovchiligi va ularni yetarli darajada qo‘llab-quvvatlanmasligi sabab bo‘ldi. Davr talabidan kelib chiqqan holda 1994-yilda Termiz agrar kolleji tashkil etildi. Unda qishloq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan hisobchilar, iqtisodchilar, veterinar-vrachlar, mexanizatorlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Biroq bu qishloq xo‘jalik kadrlarini ta‘minlash uchun yetarli emas edi.

1991-1997-yillarda xalq ta‘limidagi eng katta muammo 9-sinfni bitirayotgan o‘quvchilar bo‘ldi. 1997-yilgi ma‘lumotiga qaraganda Respublikamizda 9-sinfni bitirayotganlar 450 ming nafarni tashkil qilgan bo‘lsa, ularning 250 ming nafarga yaqini, ya‘ni 55 foizi 10-sinfda o‘qishni davom ettirar, taxminan 100 ming nafari hunar-texnika yoki maxsus o‘quv yurtlariga kirar edi. Qolgan 100 ming bola esa, umuman ko‘chada qolar edi. 11-sinfni bitirayotganlardan 20-25 ming nafari, ya‘ni hammasi bo‘lib, 10 foizi oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirar, qolgan 90 foizi esa na bir aniq ixtisos, va na bir kasb-hunarni egallay olar edi[1; B.309.]. Agar 1997-yilda Respublika aholisining yarmidan ko‘prog‘i qishloq hududlarida yashashi hisobga olinsa, ahvol qanchalik tashvishli ekanligi o‘z-o‘zidan ma‘lum bo‘ladi.

Ko‘rsatib o‘tilgan muammolarni hal etish maqsadida 1997-yil 29-avgustda “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilindi. Ushbu qonun va Milliy dasturda belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida respublika bo‘yicha akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarni barpo etish ishlari jadallik bilan olib borildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Fermer xo‘jaliklari va klaster tizimi uchun o‘rta ma‘lumotli mutaxassislarni tayyorlash tizimidagi yutuqlar va muammolar masalasida H.M.Nazarova, J.Hamroqulov, M.A. Ahmedova kabi tadqiqotchilar bir qator ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar. Shuningdek, Surxondaryo viloyat davlat arxivida ham mavzu doirasida ko‘plab ma‘lumotlar mavjud.

Ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning analiz, sintez, qiyoslash kabi metodlari hamda tarixiylik tamoyilidan foydalanilgan.

Muhokama. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 204-sonli qarori asosida “O‘zbekiston Respublikasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlandi. Mazkur qaror bo‘yicha akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarni tashkil etish ishlari olib borildi [4; B.82.].

Dastlabki kasb-hunar kollejlari texnikumlar, kasb-hunar litseylari, biznes-maktablar bazasida ochildi. 1998-yilda Termiz shahrida sobiq qurilish litseyi o‘rnida tashkil etilgan Termiz oziq-ovqat sanoati kasb-hunar kolleji qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalarini uchun mutaxassis tayyorlashga ixtisoslashtirildi.

Respublika miqyosida kasb-hunar kollejlarning qurilishi avj oldi. Ularning asosiy qismi qishloq joylariga to‘g‘ri keldi. Qishloqlarda asosiy ishlab chiqaruvchi tarmoq agrar sohaga to‘g‘ri kelganligi bois har bir tumanda qishloq xo‘jaligi yoki agrosanoat kasb-hunar kollejlari tashkil etildi. Ayrim yo‘nalishlardagi kollejlarni joylardagi shart-sharoit yo‘qligi bois qishloq xo‘jalik kollejlari aylantirildi. Jumladan, 1999-yilda Denov tumani O‘zbekiston jamoa xo‘jaligi Tortuvli qishlog‘ida yangi quriladigan qurilish yo‘nalishidagi 450 o‘rinli kasb-hunar kolleji

qishloq xo'jaligiga o'zgartirildi. Oltinsoy tumanidagi 10-sonli biznes maktabi bazasida qurilish yo'nalishi bo'yicha barpo etilayotgan 750 o'rinli kollej ham qishloq xo'jaligi sohasiga aylantirildi [13; B.178.].

Surxondaryo viloyati bo'yicha kasb-hunar kollejlarning soni yildan-yilga ortib bordi. 1999-yil 18-iyun holati bo'yicha Surxondaryo viloyati o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida 25579 nafar o'quvchi bilim olgan. Shundan 9384 nafari bitiruvchi bo'lgan. 1999/2000-o'quv yili uchun 9685 o'rin ajratilgan [14; B.165.]. 2000-yil 1-sentabr holati bo'yicha Surxondaryo viloyatida 3090 o'rinli 1 ta akademik litsey, 6 ta kollej (shundan 5 tasi qishloq va o'rmon xo'jaligiga ixtisoslashgan) binosi qurilib ishga tushirildi. Ulardagi yotoqxona o'rinlari soni 675 ta bo'lib, shundan 500 o'rin qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejlarga to'g'ri keldi [15; B.69.].

2010-yilda Surxondaryo viloyatining Sherobod, Muzrobod, Qiziriq, Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on va Oltinsoy tumanlaridagi agrosanoat kasb-hunar kollejlari tomonidan qishloq xo'jaligi uchun 1200 ta kichik texnik xodimlar tayyorlab berildi [12; B.15.].

2012-yilda o'rta maxsus, kasb-hunar tizimida 1685,9 ming o'quvchi tahsil olgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2000-yilga nisbatan 5 baravarga oshdi. 9-sinf bitiruvchilarining deyarli 100 foizi o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan qamrab olindi. 2012–2013-o'quv yilida O'zbekistondagi kasb-hunar kollejlardan 298 tasi qishloq xo'jaligi sohasi bo'yicha kadr tayyorladi. 2001-yili eng ko'p bitiruvchilar soni sog'liqni saqlash tarmog'iga (24%) to'g'ri kelgan bo'lsa, 2012-yilga kelib bitiruvchilarning eng katta qismi qishloq xo'jaligi (19%) tarmog'iga to'g'ri keldi [1; B.5-6.]. 2015-2016-o'quv yilida Surxondaryo viloyatida 14 ta kasb-hunar kollejlari qishloq xo'jalik sohasi bo'yicha mutaxassis tayyorladi.

O'zbekistonda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amaliyotga joriy etilishi kadrlar tayyorlashda uzviylik va uzluksizlikni taqozo etar edi. Joylarda qurilgan kasb-hunar kollejlarda ta'lim-tarbiya berish jarayonlarini yanada faollashtirish, pedagoglar sifatini oshirish, yoshlarga yaratilgan qulayliklarni o'rganish maqsadida doimiy ravishda monitoring ishlari olib borildi. 2007-yilning fevralida Surxondaryo viloyat O'rta maxsus, kasb-hunar boshqarmasi tomonidan Sherobod tumanidagi kasb-hunar kollejlari faoliyati o'rganilganda erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda quyidagi jiddiy muammolar borligi aniqlandi. Kollejlarda soha mutaxassislarning yetishmovchiligi, davomatning pastligi, jihozlanish darajasining yaxshi emasligi, o'rnatilgan jihozlarni ishlatadigan mutaxassislarning yetishmasligi bosh muammo bo'lib qoldi [11; B.5.].

Bundan tashqari, qishloq xo'jalik va agrosanoat kasb-hunar kollejlarda mutaxassis o'qituvchilarning yetishmovchiligi, kollejlarning internetga ulanmaganligi, mavjud ustaxonalarga olib kelingan asbob-uskunalarining o'rnatilmaganligi yoki ishlatilmasligi, xom ashyo yetishmovchiligi, kompyuter xonalariidagi jihozlarning eskirib, zamon talablariga javob bermasligi, qishloq xo'jalik kollejlarga qatnab o'qishning noqulayligi, qurilishdagi kamchiliklar va boshqalar ta'limning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Transport vositalarini ta'mirlash va ishlatish, tikuvchilik qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish mutaxassisligi bo'yicha jihozlar yetishmasligi, elektr ta'minotining yomonligi, kollej o'quv binosining isimasligi kabi muammolarning mavjudligi ta'lim sifati va davomatning pasayishiga sabab bo'lgan [9; B.7-15.].

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimidagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida Respublika hukumati bir qator choralarni ko'rib bordi. Xususan, 2012-yil 28-mayida O'zbekiston Prezidentining "Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risidagi" qaroriga muvofiq o'rta maxsus kasb-

hunar ta'limi tizimida zamonaviy va ilg'or pedtexnologiyalardan foydalanish yo'lga qo'yildi. Qaror ijrosini ta'minlash uchun 2012-yil 25-iyun – 5-iyul kunlari O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, "Iste'dod" jamg'armasi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti hamda Innovatsion ta'lim texnologiyalari markazi hamkorligida seminar-trening tashkil etildi. Seminarga Respublikaning barcha hududlaridagi akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning eng yaxshi va eng tajribali 64 nafar o'qituvchisi taklif etildi. Seminar davomida tinglovchilarga kollej o'quvchilariga yangi pedtexnologiyalar asosida ta'lim berish, ularning tafakkurini rivojlantirish, kollejlarning tomonidan tayyorlangan mutaxassislarining qishloq xo'jaligini taraqqiy ettirishdagi rolini oshirish bo'yicha jahon mamlakatlarida to'plangan tajribalar o'rgatildi. Diqqatga sazovor tomoni, seminar mashg'ulotlarini o'zlashtirish va ommalashtirishda Surxondaryo viloyatidan borgan tinglovchilar Respublika bo'yicha eng yaxshi natijalarga erishdilar [10; B.8-9.].

Mana shunday kamchiliklarni bartaraf etish, bitiruvchilarni egallagan kasblari bo'yicha ishga joylashtirishda mutasaddi rahbarlarning javobgarligini oshirish maqsadida 2015-yil 10-martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 52-sonli Qarori qabul qilindi. Qarorda kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashda uch tomonlama shartnomalar tuzish va mahalliy hokimliklarning javobgarligini oshirish ko'zda tutildi. Shuningdek, har bir tumanda joylashgan korxonalarda kollej bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash jadvallari ishlab chiqildi. Bitiruvchilarga dehqonchilik, chorvachilik va tadbirkorlikning boshqa sohalari bilan shug'ullanishlari uchun imtiyozli kreditlar ajratila boshlandi. Unga asosan, Surxondaryo viloyatidagi kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari uchun 13800 mln. so'm miqdorida imtiyozli kredit ajratilishi belgilab qo'yildi.

Shunday bo'lsada, Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 10-martdagi 52-sonli qarorini to'liq bajarib bo'lmadi. Bunga avvalambor, korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlari pastligi sabab bo'ldi. Ularning o'zida bo'sh ish o'rinlari yetarli emas edi. Janubiy viloyatlarning iqtisodiy rivojlanish jihatidan Respublikaning boshqa viloyatlaridan ortda qolganligi yangi ishlab chiqarish quvvatlarining yaratilishiga imkon bermadi. Ayniqsa, fermer xo'jaliklarida ish haqining pastligi, ko'p hollarda umuman maosh to'lanmasligi kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini qishloq xo'jalik korxonalarida ishlash ishtiyoqini yo'qqa chiqardi. Shu bois 2015-2017-yillarda kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash juda murakkab masalaga aylandi.

Natijalar. Kasb-hunar kollejlarning tashkil etilishi o'z davrida ijobiy hodisa edi. Bu quyidagilarda ko'zga tashlanadi:

1. O'zbekiston ta'lim tizimi jahon standartlariga erishdi. Ya'ni 12 yillik uzluksiz ta'lim tizimi to'liq joriy etildi.
2. Millionlab yoshlar bepul kasb-hunar olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Kollejdanda olingan diplomi tufayli ular nafaqat O'zbekistonda, balki chet ellarda ham o'ziga ish topa oldilar. Aksincha, 10-11-sinflarni tugatgan kishilar ko'p qiyinchiliklarga duch keldilar.
3. Qishloq joylarida ko'pgina ish o'rinlari yaratildi. Qishloqlarni rivojlantirish imkoniyati yuzaga keldi.
4. Maktablardan kelayotgan tarbiyasi og'ir bolalarning ko'pchiligi aynan kollejlarda to'g'ri yo'lga tushib, o'z kelajagini topib ketdilar.

Shu bilan birga kollejlarni tashkil etishda quyidagi omillar hisobga olinmadi:

1. Aholining psixologiyasi va mentaliteti 12 yillik ta'lim tizimiga tayyor emas edi. Negaki, 1990-yillarning boshida 8 va 10 yillik maktablar mavjud bo'lgan. Maktab bitiruvchilarining otalari 7, 8 va 10 yillik ta'limni tugatishgan, 11 yillik ta'lim endigina yo'lga qo'yilgan edi. G'arb mamlakatlarida har bir bosqich o'rtacha 30-40 yilni, sobiq sovet davrida o'rtacha 30 yilni o'z ichiga olgan bo'lsa, O'zbekiston sharoitida qisqa 10-15 yil ichida o'tilishi ko'zda tutildi.

2. Aholining moddiy imkoniyatlari inobatga olinmadi. Sababi, olis qishloqlar aholisi o'z bolalarini uzoqdagi kollejlarga o'qishga yuborish uchun mablag'i yetarli emas edi. Masalan, tog'li qishloqlar aholisi farzandlarini kollejga yuborish uchun kuniga o'rtacha 10-12 ming so'mdan (2012-yilgi narxlarda) pul sarflashiga to'g'ri keldi. Bunga ko'pchilikning qurbi yetmadi.

3. Kollej bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash masalasi hal etilmadi. Kollejlarni vujudga keltirish yangi ish o'rinlarini tashkil etish bilan birga olib borilmadi.

Mana shunday muammolar yaqqol ko'rinib qolganiga qaramay, Respublikada kollejlarning qurilishi jadallik bilan olib borildi. Afsuski, kollejlarni qurish va ularning faoliyatini tashkil etishda jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yildi. Bu quyidagilarda ko'zga tashlandi:

1. Kasb-hunar kollejlarni tashkil etish va kadrlar tayyorlash masalasida xalqaro tajribalardan foydalanilmadi. Sovet tuzumi davrida shakllantirilgan texnikumlarning ilg'or tajribalaridan voz kechildi, o'quv dasturlari, darsliklari yaratilmay turib tez sur'atlarda kollejlarni ochishga kirishildi.

2. Kollejlarni qurishda ularning joylashuv o'rniga ahamiyat berilmadi. Yangi kollejlarda ko'p hollarda aholi punktlaridan chekka joylarda qurildi. Tog'li va olis qishloq joylarida tashkil etilgan kollejlarda maxsus ko'rsatma asosida nomiga o'quvchilar ro'yxati shakllantirildi. Ayrim kollejlarning binolari yarim tayyor holda qurib topshirilish natijasida isitish, yorug'lik, yotoqxonalar, ovqatlanish, tibbiy yordam ko'rsatish mutlaqo talab darajasida bo'lmay qoldi. O'quvchilarning uzoq qishloqlardan kollejlarga qatnab o'qishlari uchun avtobuslar ajratilmadi.

3. Kollejlarni tashkil etilar ekan, ularni bitiradigan kadrlar uchun zarur bo'lgan infratuzilma yaratilmadi. Masalan, Termiz va Sherobod tumanlarida agrosanoat kasb-hunar kollejlari tashkil etildi-yu, ammo ushbu hududlarda bu sohaga aloqador bo'lgan tarmoqlar rivojlantirilmadi. Deyarli har bir viloyatda bir nechtdan axborot texnologiyalari kasb-hunar kollejlari ochildi. Ularning xizmatlaridan hokimliklar va boshqa tashkilotlar ham unumli foydalanishdi. Lekin viloyatlarda axborot texnologiyalari taraqqiyoti uchun hech qanday g'amxo'rlik ko'rsatilmadi. Aksincha, yirik dasturchilarni tazyiqqa olish avj olib ketdi. Oqibatda Surxondaryo viloyatlarida qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatishi lozim bo'lgan yirik dasturchilarning deyarli hammasi chet ellarga ketib qolishdi.

4. O'qituvchilar faoliyatida bola bilan emas, hujjat bilan ishlash muhim qilib qo'yildi. Bu boradagi eng katta xatolik, 2008-yilda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida pedagogik yuklamaning joriy etilishi bo'ldi. Unga ko'ra, o'qituvchi ilgari olib kelgan 100 % oyligining 50 % ini himoya qilib oladigan bo'ldi. Pedyuklama pedagogning vaqtini chegaralab, ijodiy imkoniyatini deyarli yo'qqa chiqardi. O'qituvchining butun vaqti faqat pedyuklama hujjatlarini to'ldirish bilan band bo'lib qoldi. Ta'limda sifat o'rnida son, ya'ni bolani ushlab turish talab etildi.

5. Kollejlardagi davomatni ta'minlash uchun ta'sirchan mexanizm yaratilmadi. Davomat uchun ota-ona emas, o'qituvchi mas'ul qilib qo'yildi. Oiladan ajralib chiqqan yosh o'quvchilarni

huquqiy va moddiy himoya qilinmaganligi davomatga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Uch yillab o'qishga kelmagan o'quvchi darsga kelganlar qatori kollejni tugatib diplomini olib ketishi o'qituvchilarning obro'yini tushirdi. Ta'limning sifati pasayib, jinoyatchilik uchun muhit yaratildi.

6. O'quv dasturlarining barqaror emasligi. Masalaning e'tiborli tomoni shuki, bitta o'quv dasturi qabul qilingach, uni to'liq o'zlashtirib olish uchun kamida 3-4 yil zarur bo'ladi. Undan keyin esa u o'z natijasini bera boshlaydi. O'zbekiston kollejlari esa, o'quv dasturlari har 2-3 yilda o'zgarib turdi. Ya'ni, oldingi o'quv dasturini to'liq o'rganib, muayyan malakaga ega bo'lgan o'qituvchi yana boshqatdan yangi dasturga moslashishga majbur bo'ldi. Bu ham yetmagandek, 2016-yilda qabul qilingan o'quv dasturlarining katta qismi mavjud darsliklarga umuman to'g'ri kelmadi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, bunday dasturlar shosha-pisha qabul qilingan, uni ishlab chiqqan kishilar viloyatlar va chekka hududlarda joylashgan tumanlar ahvoli bilan tanishmagan, yoki, o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida ishlab ko'rmagan kishilardir.

7. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni talab qiladi. To'g'ri, O'zbekiston kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari AQSH, Koreya Respublikasi, Germaniya, Avstraliya singari davlatlarga malaka oshirish va tajriba o'rganish uchun yuborildi. Ularning asosiy qismi agrosanoat sohasi bo'yicha mutaxassislar edi. Afsuski, chet ellarda o'qib kelgan mutaxassislarning tajribasidan deyarli foydalanilmadi. Ko'p hollarda nomigagina seminar mashg'ulotlari tashkil etish bilan chegaralandi. Qolaversa, 2006-yildan boshlab, O'zbekiston ta'lim sohasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni ancha susaytirdi. Natijada, ta'lim tizimi jahon yangiliklarini qabul qilolmay, byurokratiya botqog'iga botib ketdi.

8. Kollejlarda ilmiy tadqiqot olib boradigan o'qituvchilar va ilmiy xodimlar uchun hech qanday sharoit yaratilmadi. Ularni qo'llab-quvvatlash uchun biron-bir amaliy chora ko'rilmadi. Bu esa, kollejlarning fan va texnika taraqqiyotidan, ishlab chiqarishdan uzilib qolishiga sabab bo'ldi. Kollejlarda o'zlariga qilingan sarf-xarajatlarni oqlay olmadilar.

9. Ta'lim tizimidagi turli hasharlarning ko'pligi ta'lim sifatining keskin pasayishiga sabab bo'ldi. Kollej o'quvchi va o'qituvchilari 2007-2016-yillarda surunkasiga ko'cha ishlariga ommaviy safarbarlik etildilar. Uy buzish, tuproq elash, chiqindi tozalash, bog' va xiyobonlarni obodonlashtirish to'lig'icha o'quvchi va o'qituvchilar zimmasiga yuklandi. Paxta kampaniyasi boshlanishi bilan barcha kasb-hunar kollejlari yoppasiga yopilib, barcha majburiy ravishda dalaga, paxta terimiga safarbar qilindi. Bularning barisi kollejlarda davomatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ota-onalar o'z bolalarini kollejga o'qishga yuborishsa, albatta hasharga jalb qilinishini bilganliklari uchun ham ularni o'z uylarida olib o'tirishni ma'qul ko'rishdi. To'g'ri, hukumat hasharlarni tartibga keltirdi, o'quvchilarni paxtaga olib chiqish to'xtatildi. Lekin uning asorati hanuzga qadar seziladi.

10. Kollejlarda ishbilarmonlikni rivojlantirishga hech kim e'tibor bermadi. Ishbilarmon o'quvchilar yetarli darajada qo'llab-quvvatlanmadi. Bitiruvchilarni ishga joylashtirish bilan faqat kollej o'qituvchilari shug'ullanib qolishdi. Hokimliklar bu borada nomigagina bo'sh ish o'rinlari yarmarkalarini tashkil etish bilan kifoyalandilar, xolos.

11. Barcha kollejlarda o'quvchilarni dars vaqtida turli madaniy tadbirlar – konsertlar, kino, rahbarlar bilan suhbatga majburiy jalb etish avj olib ketdi. O'tkazilgan yuzlab, minglab tadbirlar asosan nomiga tashkil etilib, o'quvchilarning yoshi hamda qabul qilish salohiyoti hisobga olinmadi. Kollejlarda ma'muriyati viloyat va tuman hokimliklaridan kelgan buyruqlar asosida o'z o'quvchilariga har xil konsert, sirk yoki qiziqchilarning tomoshasini ko'rsatish

uchun bilet sotish bilan band bo'lib qolishdi. Oqibatda kollejlarda pul yig'ish nihoyat darajada kuchaydi.

Yuqorida ko'rsatilgan muammolar o'rta maxsus, kasb-hunar bilim yurtlarida davomat va ta'lim sifatining keskin tushib ketishiga sabab bo'ldi. O'quvchilar kollejlarga kelib bilim olish o'rniga tayyorlov kurslari – repetitorlikka borib o'qishni afzal ko'rishdi. 2010-2015-yillarda Surxondaryodagi qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan deyarli barcha kollejlarning yuzlarcha o'quvchilari Toshkent va Buxorodagi repetitorlik kurslariga borib, o'sha yerda oliy o'quv yurtiga kirish uchun zarur bo'ladigan bilimlarni olishdi. Kasb-hunar kollejlarning obro'yi keskin tushib ketdi. Odamlarning nazarida kollej – hech qanday bilim bermaydigan, bolalar vaqtini behudaga o'tkazadigan, jamiyatga biron-bir foydasi tegmaydigan keraksiz tashkilotga o'xshab qoldi.

Respublika iqtisodiyoti, shu jumladan, agrar sohadagi inqirozli ahvol kasb-hunar ta'limini qayta ko'rib chiqishni talab qildi. 2017-yil 14-yanvarda Vazirlar Mahkamasining yig'ilishida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimidagi kamchiliklar muhokama qilindi va zarur bo'lgan choralar ko'rildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2017-2018-o'quv yilidan boshlab yana 11 yillik ta'lim joriy etildi. Kollejlarga o'qish ixtiyoriy qilib qo'yildi. Ota-onalar o'z bolalarining 12 yil o'rniga 11 yil o'qishini afzal ko'rishdi.

O'zbekistonda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini jahon talablari asosida qayta qurish boshlandi. O'zini oqlamagan kasb-hunar kollejlari tugatilib, ularning binolari maktablar va oliy ta'lim muassasalariga berildi. Qolgan kollejlarni davr talabidan kelib chiqqan holda yangilashga kirishildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5812-sonli Farmoniga ko'ra, 2020-2021-yangi o'quv yilidan boshlab xalqaro klassifikatorga mos keluvchi ta'lim dasturlari bo'yicha kasb o'rgatadigan 339 ta kasb-hunar maktablari, 211 ta kollej hamda 176 ta texnikumlar tashkil etilishi belgilangan. Jumladan, Surxondaryo viloyatida 28 kasb-hunar maktablari, 11 ta kollej, 9 ta texnikum tashkil etilishi ko'zda tutildi.

Xulosa. Xulosa qiladigan bo'lsak, mustaqillik yillarida respublikamiz janubiy viloyatlarida o'rta bo'g'indagi qishloq xo'jalik mutaxassislariga bo'lgan talab ancha oshdi. Mutaxassislarning kasbiy bilim darajasi, zamonaviy texnikani boshqaruv va uni ta'mirlashga oid tajribalari umumlashtirildi. Bu borada erishilgan yutuqlar, yuzaga kelgan xato va kamchiliklar doimiy ravishda o'rganildi. Kasb-hunar ta'limi davr talabidan kelib chiqqan holda takomillashtirib borildi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun Respublika rahbariyati tomonidan so'nggi yillarda juda muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Agrar soha mutaxassislarini tayyorlash jarayoni davr talabidan kelib chiqqan holda takomillashtirilmoqda. O'zini oqlamagan qishloq xo'jalik kollejlari o'rniga kasb-hunar maktablari va qishloq xo'jalik texnikumlari tashkil etildi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ahmedova M.A. O'zbekiston Respublikasida Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi: erishilgan natijalar va istiqbolli yo'nalishlar // Zamonaviy ta'lim / Sovremennoye obrazovaniye. 2014. № 8. –B. 5-6.
2. Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi. 1997-yil 29-avgust.

3. Karimov I. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori // Xavfsizlik va barqarorlik yo'lida. Asarlar. 6-jild. –Toshkent: O'zbekiston, 1998. –B. 309.
4. Nazarova H.M., Hamroqulov J. Aholining ma'lumotlilik darajasi va uni jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotidagi o'rni // Iqtisod va moliya. 2011, №8. –B. 82.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997. 11-12-son, 295-modda.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997. 9-son, 225-modda;
7. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015. 10-son, 115-modda; 2017. 15-son, 249-modda, 19-son, 345-modda, 37-son, 996-modda, 14.05.2019. 09/19/397/3123-son).
8. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016. 17-son, 174-modda.
9. Qashqadaryo viloyati hokimligi joriy arxivi, 2011-yil, 27-iyun, 2-sonli bayonnoma. –B. 7-15.
10. Shukurova M. Mushtarak maqsad sari // Kasbiy fanlar metodikasi. 2012-yil / iyul. 7 (19)-son. –B. 8-9.
11. Surxondaryo viloyat hokimligi joriy arxivi, 1-bayonnoma, 4-hujjat, 2007-yil, 12-fevral. –B. 6.
12. Surxondaryo viloyat hokimligi joriy arxivi, 2-bayonnoma, 6-hujjat, 2010-yil, 20-dekabr. –B. 15.
13. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 564-fond, 1-ro'yxat, 17-ish, 178-varaq.
14. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 564-fond, 1-ro'yxat, 17-ish, 165-varaq.
15. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 564-fond, 1-ro'yxat, 17-ish, 69-varaq.
16. Ta'lim to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 464-I-son 29.08.1997.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (3)-2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).